BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

SCREENING OF THE ANTI-INFLAMMATORY ACTIVITY OF EXTRACTS PREPARED FROM CITRUS PEELS

Yunusaliyeva Madina Doniyor qizi
Master's student in Biology, Namangan State University
E-mail: madinayunusaliyeva03@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.21260315

Abstract: This study is devoted to the screening of the anti-inflammatory biological activity of extracts obtained from citrus peels, and positive results were achieved. During the research, flavonoids, phenolic compounds, and other biologically active substances present in citrus peels were extracted using an appropriate extraction method, and their anti-inflammatory activity was evaluated under laboratory conditions. The biological activity of the extracts was assessed using modern screening techniques to determine their pharmacological potential. The obtained findings provide a scientific basis for the use of citrus peels as a medicinal plant raw material and contribute to the further development of natural anti-inflammatory agents.

Keywords: citrus plants, peel extract, screening, anti-inflammatory activity, flavonoids, phenolic compounds, fruit, biologically active compounds, phytochemical analysis, natural anti-inflammatory agents, biological activity.

SITRUS O`SIMLIKLARNING PO`STLOG`IDAN TAYYORLANGAN EKSTRAKLARNING YALLIG`LANISHGA QARSHI FAOLLIGINI SIKRINNING QILISH

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot sitrus o‘simliklari po‘stlog‘idan olingan ekstraktlarning yallig‘lanishga qarshi biologik faolligini skrining qilishga bag‘ishlangan va ijobiy natijaga erishilgan. Ish davomida sitrus po‘stlog‘i tarkibidagi flavonoidlar, fenolik birikmalar va boshqa biologik faol moddalar ekstraksiya usuli orqali ajratib olinadi hamda ularning yallig‘lanishga qarshi ta'siri laboratoriya sharoitida baholanadi. Tadqiqotda ekstraktlarning biofaolligi zamonaviy skrining usullari yordamida tahlil qilinib, ularning farmakologik istiqbollari aniqlanadi. Olingan natijalar sitrus po‘stlog‘ini dorivor xomashyo sifatida qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asoslashga, shuningdek, tabiiy kelib chiqishga ega yallig‘lanishga qarshi vositalarni yaratish bo‘yicha keyingi izlanishlar uchun muhim ilmiy ma'lumotlar berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sitrus o‘simliklari, po‘stloq ekstrakti, skrining, yallig‘lanishga qarshi faollik, flavonoidlar, fenolik birikmalar, meva, biologik faol moddalar, fitokimyoviy tahlil, tabiiy antiinflamator vositalar, biofaollik.

Аннотация. Настоящее исследование посвящено скринингу противовоспалительной биологической активности экстрактов, полученных из кожуры цитрусовых растений, в результате которого были достигнуты положительные результаты. В ходе исследования методом экстракции были выделены флавоноиды, фенольные соединения и другие биологически активные вещества, содержащиеся в кожуре цитрусовых, а их

противовоспалительное действие оценивалось в лабораторных условиях. Биологическая активность экстрактов была изучена с использованием современных методов скрининга, что позволило определить их фармакологический потенциал. Полученные результаты служат научным обоснованием возможности использования кожуры цитрусовых в качестве лекарственного растительного сырья, а также создают основу для дальнейших исследований по разработке природных противовоспалительных средств.

Ключевые слова: цитрусовые растения, экстракт кожуры, скрининг, противовоспалительная активность, флавоноиды, фенольные соединения, плоды, биологически активные вещества, фитохимический анализ, природные противовоспалительные средства, биологическая активность.

I bob yallig`lanish bilan bog`liq kasalliklar va patologiyasi

1.1. Yallig`lanish kasaligini davolashda sitrus o`simlik qoldiqlaridan foydalanish istiqbollari va kimyoviy tarkibi.

Kivi - *Actinidia chinensis Planch*

Kivi mevasi o`zining vitaminlarga boyligi bilan mashhur. U o`zining turiga qarab 50 grammdan 150 grammgacha og`irlikda bo`lishi mumkin. Antioksidantga boy kivi tarkibida ko`p miqdorda C vitamini, xun tolasi va muhim ozuqaviy moddalar mavjud.

1.1-rasm. Kivi - Actinidia chinensis Planch

U C vitaminidan tashqari, kaltsiy, temir, magniy, fosfor, kaliy moddalarini ham o`z ichiga oladi. C vitamini va antioksidantlarga juda boy bo`lgan kivi astma bilan og`rigan bemorlarda nafas





olish qiyinlishuvi va nafas qisilishi kabi alomatlarni kamaytirishga yordam beradi. Kivining astmaga ijobiy ta`sirini ko`proq bolalarda kuzatish mumkin. Kivi reflyuks, oshqozon yarasi va gastritning shakllanishiga to`sqinlik qiladi. Kivi o`z xususiyatlariga ko`ra gidroksidi tuzilishga ega bo`lgani uchun oshqozon sog`lig`ini himoya qilishga ham yordam beradi. Kayfiyat buzilish holatlarida iste`mol qilish tavsiya etiladi. Kivi tarkibida baxtiyorlik gormoni - serotonin mavjud. Shu sababli, kivi baxt gormoni sekretsiyasini keltirib, depressiyaga qarshi himoya ta`siriga ega bo`lishi mumkin. Immunitetni mustahkamlaydi. Kivi yallig`lanishni davolashda samarali. Bundan tashqari, qo`shma og`riqlar bilan bog`liq yallig`lanishni kamaytirishi ma`lum. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, deyarli 90 foizi suvdan tashkil topgan bu meva tana haroratini ushlab turish, terining shikastlanishini yo`qotish va ozuqa moddalarini hazm qilishda muhim rol o`ynaydi. Aytishimiz mumkinki, salomatlik nuqtai nazaridan kuniga o`rtacha 2 ta kivi iste`mol qilish organizm uchun yetarli hisoblanadi. Kivi reflyuks, oshqozon yarasi va gastritning shakllanishiga to`sqinlik qiladi. Kivi o`z xususiyatlariga ko`ra gidroksidi tuzilishga ega bo`lgani uchun oshqozon

sog`lig`ini himoya qilishga ham yordam beradi. Kivi tarkibida baxtiyorlik gormoni - serotonin mavjud. Shu sababli, kivi baxt gormoni sekretsiyasini keltirib, depressiyaga qarshi himoya ta`siriga ega bo`lishi mumkin. C vitaminining eng muhim xususiyatlaridan biri immunitetni mustahkamlashdir. Kivining ovqat hazm qilishga foydalari uning eriydigan va erimaydigan tolalarga boyligidan kelib chiqadi. Eriydigan tolalar ichaklarning sog`lom ishlashi uchun zarur bo`lgan foydali bakteriyalarni ishlab chiqarishga yordam beradi. Erimaydigan tolalar suvni ushlab turadi va ovqat hazm qilish jarayonida kengayadi, bu esa defekatsiyani osonlashtiradi. Bu ovqat hazm qilishni tezlashtiradi va ichak harakatini tartibga solishni ta`minlaydi. Ko`p miqdorda tolaga ega bo`lgan kivini muntazam ravishda iste`mol qilish qabziyat kasalligini oldini olishga yordam beradi. Antioksidantlar, kaliy va tolalar yurak sog`lig`ida muhim rol o`ynaydi. Kaliy qon tomirlarini bo`shashtirishga va qon bosimini barqarorlashtirishga yordam beradi. Kam kaloriyali meva bo`lgan kivi xolesterinni yaxshi ko`taruvchi ta`sirga ega. Qonni suyultiruvchi ta`siri bilan yurak-qon tomir salomatligi uchun muhimdir. Kivi o`zining tolali tuzilishi tufayli yo`g`on ichak saratonini oldini olishga hissa qo`shishi mumkin. 100 grammda 61 kaloriya bo`lgan kivi to`liq dietaga mos keladigan oziq-ovqat hisoblanadi.

Kimyoviy tarkibi. Kivi ko`plab vitaminlar va minerallarga boy. C vitamini - 51,1% vitamin C oksidlanish-qaytarilish reaktsiyalarida, immunitet tizimining ishlashida ishtirok etadi, temirning emishini rag`batlantiradi. Kaloriya tarkibi 243 kkal. Kivi tarkibidagi V guruhi vitaminlari, ayniqsa, V1 va V2 asab tizimi faoliyatiga ijobiy ta`sir etib, jahlni jilovlashga yordam beradi.

Kivi mevasini 100 gramm mahsulotida mineral moddalar miqdori

№ Mineral moddalar 100 gramm mahsulotda Foiz hisobida

1 Kaliy 300 mg 12%

2 Kalsiy 40 mg 4%

3 Magniy 25 mg 6%

4 Fosfor 34 mg 3%

5 Natriy 5 mg 0%

6 Temir 0,8 mg 6%

Kivi iste`mol qilish kamqonlikning oldini olib, og`iz va ko`z shilliq pardalarini himoyalaydi. Bunga sabab tarkibidagi foliy kislotasidir. Homiladorlikka tayyorgarlik va homiladorlik davrida ayollarga kivi eyish tavsiya etiladi. Sog`lom odam kuniga 3-4 gr. miqdorda kaliy moddasini qabul qilish kerak. 1 ta kivi esa o`zida 3 gr. kaliy moddasini jamlagan. Bu yurak-qon tomirlari faoliyati uchun foydali bo`lib, gipertoniya, uyquchilik, shishlar va mushaklar bilan bog`liq kasalliklar kuzatilganda foydali. 100 gr. kivi bir kunlik magniyga bo`lgan ehtiyojingizni 50 foizga qondiradi. Havo ta`siridagi organizmdagi o`zgarishlar, tutqanoq, asabiylik holatlarida ayni muddao. Kivi mevasi o`zining vitaminlarga boyligi bilan mashhur. U o`zining turiga qarab 50 grammdan 150 grammgacha og`irlikda bo`lishi mumkin. Uning katta qismini suv tashkil qiladi (84 %). Suvdan tashqari, uning tarkibida oqsil (1%), yog`lar (1 foizdan kamroq) va uglevodlar (10 %) mavjud. 100 gramm mahsulot 48 kilokaloriyaga teng.

BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL



1.2-rasm. Mandarin - *Citrus reticulate*

Doimo yashil tusdagi Mandarin daraxti sitruslar oilasiga mansub. Uning shirin mevalari po`chog`ini ajratish oson, aynan shu xususiyati mandarinni boshqa sitruslardan ajratib turadi. Mandarin sarxil holida iste`mol qilinadi, mevali va sabzavotli salatlarga qo`shiladi, shuningdek undan mandarin sharbati va murabbo tayyorlash mumkin.

Mandarin noyabr-dekabr oylarida pishib yetiladi. U Hindiston, Janubiy Koreya, Xitoy va Yaponiyada eng mashhur sitrus meva hisoblanadi. Uning daraxti Misr, Jazoir, Turkiya, Ozarboyjon, Braziliya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda ham o`stiriladi. Ushbu meva tarkibida organik kislotalar, shakar, askorbin kislotasi, tiamin, rutin va fitonsidlar mavjud. Terisida katta miqdorda efir moyi bor. Mandarinning to`yimlilik darajasi 53 kkal. Tarkibidagi B12 vitamini soch to`kilishini kamaytiradi, oq tushishini sekinlashtiradi. Shuningdek, soch o`sishi uchun foydali bo`lgan C vitaminining koni. Uning ta`sirini yanada ko`paytirish uchun uni salatga, sous va baliq hamda tovuqli taomlarga qo`shish tavsiya qilinadi. Mandarinlar boshqa sitrus mevalar singari nitratni ichiga olmaydi. Depressiyani davolashning zamonaviy usullariga ko`ra, xushbo`y ifor ham bu borada yaxshi samara beradi va shu sabab shunday taomlar iste`mol qilish tavsiya qilinadi. Mandarindan tayyorlangan efir yog`i esa depressiya, uyqusizlik hamda yomon kayfiyatda ayni muddao. Bir dona mandarinda kundalik me`yor hisoblangan C vitamining 31 foizi bo`ladi. Shuningdek B guruhi vitaminlari, A provitamini hamda P, K vitaminlari mo`l bo`libgina qolmay, askorbinka va minerallangan tuzlarni ham o`z ichiga oladi. Mandarin kasallik keltirib chiqaruvchi bakteriyalar bilan tabiiy antibiotiklar kabi kurashish xususiyatiga ega bo`lgan fitonsid moddasiga ham boy sanaladi. Shu sabab ham undan tayyorlangan sharbat yuqori harorat va shamollashda yaxshi samara beradi. Ayniqsa, chekuvchilar uchun dolzarb bo`lgan o`pkani tozalash xususiyatiga ham ega.

Kimyoviy tarkibi. Mandarinlar B va S vitamini uchun ajoyib manbadir. Kuz-qish mavsumida immunitetni mustahkamlash uchun organizmdagi vitaminlar zaxirasini to`ldirib borish muhim ahamiyatga ega. Mandarin iste`moli ishtahani ochadi, organizmdagi moddalar almashinuvi jarayonini yaxshilaydi, umumiy quvvat beruvchi va mikroblarga qarshi kurashuvchi hisoblanadi. Mandarindan olinadigan ko`plab foydalarga qaramay, ularning me`yordan ortiq iste`moli allergik reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Me`da shirasi kislotasi oshishi bilan kechuvchi gastrit va ichaklardagi yallig`lanish xastaliklarida mandarin tanovul qilish tavsiya etilmaydi. Eti to‘q sariq,

sersuv, 8—10 pallali, vazni 60—80 g . Sharbati tarkibida 2,87—10,5% qand, 0,95—1% kislota (asosan, limon kislota), 25 mg % vitamin S va boshqa mavjud. Po‘stida pektin moddasi, efir moyi va glikozidlar mavjud bo‘lib, qandolatchilik sanoatida va efir moyi olishda ishlatiladi. Mandarin sovuqqa chidamli: —6,5° da barglarini, — 12° da daraxtini sovuq uradi. Ohak va gumusga boy tuproqlarda yuqori hosil olinadi. Mandarin asosan, payvand yo‘li bilan ko‘paytiriladi (asosan, trifoliatga payvand qilinadi). Ko‘chatlar orasi 3–5 m, qator orasi 5–6 m qilib kech kuz va erta bahorda ekiladi. Yozda qator oralari yumshatiladi, sug‘oriladi. Mandarin daraxtiga yosh paytida to‘g‘ri shakl berilsa, hosildorlik yuqori bo‘ladi. 10—12 yillik daraxtlardan 1 gektardan 500 s hosil olinadi (bir tupi 30–70 kg meva beradi). Mevasi yangiligida iste’mol qilinadi (murabbo, jem, sharbat) tayyorlanadi.

Apelsin - *Citrus sinensis*

Apelsinlar kletchatka va antioksidantlarga juda boy. Ular xolesterin darajasini nazorat qilish, qon tomirlarining elastikligini oshirish va qon bosimini normallashtirishda muhim rol o`ynaydi. Bularning barchasi yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga ijobiy ta`sir qiladi va tomirlarda tromb hosil bo`lishi va torayishining oldini oladi. Apelsinlar antioksidantlar va C vitaminiga juda boy bo`lganligi sababli saraton kasalligiga qarshi kurashda juda yaxshi samara beradi



.

1.3-rasm. Apelsin - *Citrus sinensis*

Apelsinlar hujayralar va to`qimalardagi salbiy o`zgarishlar xavfini kamaytiradi. Antioksidantlar, vitaminlar va minerallarning boy tarkibi tufayli apelsinlar to`qimalardagi shamollashning oldini oladi. Bu nafaqat surunkali kasalliklar va saraton rivojlanish xavfini kamaytiradi, balki tanani infeksiyalar va viruslardan himoya qilishga yordam beradi.

Mazkur mevalar immunitet tizimining ishlashi uchun muhim va qimmatli bo`lgan juda ko`p C vitaminini o`z ichiga oladi. Apelsin tarkibidagi ko`p miqdordagi C vitamini va antioksidantlar tufayli bu sitrus mevalar teri va sochlar uchun ham foydalidir. C vitamini kollagen sintezi va so`rilishida muhim rol o`ynaydi, bu teri holatini yaxshilaydi, qarishni sekinlashtiradi, sochlarni qalin va serjilo qiladi. Apelsinlar ko`rish qobiliyatini yaxshilaydi. Ular A vitaminiga juda boy, bu vitamin ko`rish salomatligi bilan bevosita bog`liq bo`lgan kuchli antioksidant bo`lib xizmat qiladi. Ko`zlardagi yallig`lanishni kamaytiradi va ulardagi degeneratsiyani kamaytiradi. Apelsin tarkibida mavjud bo`lgan A vitamini jigarni shikastlanishdan himoya qiladi, uning funksiyalarini

rag`batlantiradi, toksinlarni yo`qotishni osonlashtiradi, jigar hujayralari va fermentlarning sinteziga yordam beradi. Shuningdek, u jigar kasalliklaridan himoya qiluvchi yallig`lanishni kamaytiradi. U buyraklar faoliyatini yengillashtiradigan, siydik ishlab chiqarishni rag`batlantiradigan, toksinlarni yo`q qiladigan, buyrak kasalliklari va infeksiyalar rivojlanish xavfini kamaytiradigan suv va kletchatkaning boy manbai bo`lib xizmat qiladi.

Kimyoviy tarkibi. Apelsin tarkibida beta-karotin, foliy kislotasi, B vitaminlari, askorbin kislotasi (vitamin C) mavjud. H va PP vitaminlari, shuningdek, tananing normal ishlashi uchun zarur bo`lgan minerallar — kaliy, sink, temir, molibden, kalsiy, magniy, fosfor va natriyga ham boy.

Banan - *Musa*

Banan – banansimonlar oilasiga mansub ko‘p yillik tropik o‘simlik. Vatani Afrika va Osiyoning tropik va subtropik zonalari hamda Malayya arxipelagi. Asosan, Lotin Amerikasi mamlakatlarida o‘stiriladi. Bananning bo‘yi 15 m gacha boradi, bargi yirik (uzunligi 4 m gacha, eni 90 sm gacha). Bananning 40 ga yaqin turi bor. Guli qo‘sh jinsli. Mevasi rezavor meva. Bir tup mevada 300 tagacha mevasi bor (60 kg gacha). Bir mevasining uzunligi 15 sm gacha, diametri 3 – 4 sm ga boradi. Sarg‘ish, eti oqish, shirin. Etining tarkibida 75 – 76% suv, 14 – 22% qand, 5 – 8% kraxmal, 1,5% gacha protein, 0,3 – 0,6% moy bor.



1.5-rasm. Banan – ***Musa***

Partenokarpiya usulida (otalanmasdan) meva hosil qiladi, shuning uchun urug‘i puch. Banan mevasi xo‘lligicha hamda quritilgan holda iste’mol qilinadi. Ko‘pchilik turlarining mevasi yeyishga yaramaydi. Banan ildiz bachkilari yordamida ko‘payadi. Ayrim turlaridan dengizchilikda qo‘llaniladigan arqonlar, baliq ovlash to‘rlari tayyorlashda ishlatiladigan tola (abaka) olinadi. Bananning xushmanzara daraxt sifatida ko‘chalar, parklarda va uylarda o‘stirilgan turlari ham bor. Bananning asosini uglevodlar, shu jumladan kletchatkalar tashkil qiladi. Uning turlaridan biri — pektin mag`izga gubka shaklini beradi. Kraxmal esa zich to`qimalar uchun javobgar hisoblanadi. Banan pishganida kraxmal monosaxaridlar va disaxaridlarga parchalanadi, shuning uchun meva yumshoqroq va shirinroq bo`ladi. Pektin ham, kraxmal ham (ayniqsa, pishmagan bananlarda ko`p) ovqatdan keyin qondagi qand miqdorini pasaytiradi, qondagi shakarning keskin o`zgarishini oldini oladi. Bunday davolash giperglikemiyaning bir turi bo`lib xizmat qiladi. Hazm qilish tizimi salomatligini yaxshilaydi. Kraxmal yuqori ovqat hazm qilish tizimida hazm bo`lmaydi va yo`g`on

ichakka yetib boradi. Bu yerda u foydali bakteriyalar uchun oziq-ovqat bo`ladi, ya`ni ichak mikroflorasi holatini yaxshilaydi. Pektin, o`z navbatida, yo`g`on ichak saratonidan himoya qilishi mumkin. Hech bo`lmaganda bu bir nechta sinov naychalari tomonidan qo`llab-quvvatlanadi. Vazn yo`qotishingizga yordam beradi. Bugungi kunga qadar bu haqda aniq hisobot beradigan tadqiqotlar yo`q: agar siz har kuni banan iste`mol qilsangiz, vazn yo`qotishingiz mumkin. Biroq bilvosita dalillar optimistika hisobalanadi. Ko`p miqdorda kletchatkaga ega bo`lgan meva va sabzavotlarni muntazam iste`mol qilish vazn yo`qotishga yordam berishi ma`lum. Boshqa omillar ham bor. Masalan, o`rtacha kattalikdagi banan taxminan 105 kkalni o`z ichiga oladi. Bu taxminan bir stakan 2,5 foizli qatiq bilan bir xil foyda beradi. Bananni iste`mol qilganingizdan so`ng, uzoq vaqt davomida zararli va yuqori kaloriyali gazaklarni yemasdan yurishingiz mumkin.

Kimyoviy tarkibi. Vitamin B6 — kunlik miqdorining 41 foizi; C vitamini — 33 foiz; marganets — 30 foiz; kaliy – 23 foiz; magniy — 15 foiz; folat (B9 vitamini, uning sintetik shakli foliy kislotasi) — 11 foiz; riboflavin (vitamin B2) — 10 foiz. Bundan tashqari, banan tarkibida boshqa B vitaminlari, A, E va K vitaminlari, shuningdek, mis, fosfor, sink va temir mavjud.

Limon - *Citrus limon*

Limon — rutadoshlar (sitruslar turkumi)ga kiradigan doim yashil ko‘p yillik daraxtlar turi, mevali ekin. Vatani — Janubiy va Jan.-Sharqiy Osiyo. Yovvoyi holda o‘sishi aniqlanmagan. O‘rta Dengiz, AQSH, Meksika, Argentina va boshqa mamlakatlar subtropiklarida, Kavkazning Qora dengiz bo‘ylarida, O‘rta Osiyoda (transheyalarda) ekiladi. Shuningdek, uy sharoitlarida o‘stiriladi. Daraxti balandligi 3–7 m, shoxshabbasi yoyiq. Novdalari tikanli, ba’zilari tikansiz. Bargi qalin, och yashil, cho‘ziq-tuxumsimon. Gullari ikki jinsli, oq, xushbo‘y. Mevasi tuxumsimon, ba’zan dumaloq. o‘rtacha og‘irligi 120—400 g ga boradi. Po‘sti sariq, silliq yoki g‘adir-budur, taxir. Eti 8—12 pallali, och sariq, sersuv, nordon. Sharbati tarkibida 3,5—8,1% kislota (asosan, limon kislota), 1,9—3,0% qand, vitamin S (100 g ida 45–140 mg), RR va V hamda pektin moddalar, temir, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy tuzlari bor. Asosan, ho‘lligicha yeyiladi, konditer mahsulotlari tayyorlashda, sharbat, limonad, limon kislota olishda ishlatiladi. Limonning nordon va o`tkir ta`mi insonni tetiklashtiradi va immunitetimizga turli viruslar hamda kasalliklar bilan kurashishga yordam beradi. Biroq ko`pchilik bu mevaning foydali xususiyatlari haqida yetarlicha ma`lumotga ega emas. Shunday ekan, sizlarga allwommen.ru`ning limon xususiyatlariga oid ma`lumotlari bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz. U nafaqat ijobiy ta`sir qiladi, balki xavotir hamda tushkunlik hissi bilan kurashishga ham yordam beradi.



1.6-rasm. Limon - *Citrus limon*

Elita restoranlarining oldiga atayin limon daraxtlarini ekishadi, chunki ular mijozlarning bu yerda o`zini qulay va xavfsiz his qilishida katta rol o`ynaydi. Shuningdek, bu meva tanamizning "qaysar" qismlari - tirsak va tizzalarni tozalashda ham qo`l keladi. Bu mahsulotdan tirnoqlarni oqartirish, og`iz bo`shlig`idagi hidni yaxshilash va oyoqlardagi og`riqni davolashda foydalanish mumkin. Limon artrit, oshqozon-ichak kasalliklari va revmatizm kabi ko`plab kasalliklarni osonlikcha davolashi mumkin. Har kuni limon suvidan ichib turing. Shuningdek limon vabo va bezgak kabi kasalliklardan saqlashi mumkin. Bularning barchasiga sabab - limonning tabiiy qon tozalovchi vosita ekanligidadir! Limonni kundalik iste`mol qilish qarish belgilarini bartaraf etadi. Bu mahsulot S, A, Ye vitaminlari, xrom, kaliy, magniy va temirga boy. Limondan "tabiiy tetiklashtiruvchi" vosita sifatida foydalaning.

“Limon ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilaydi, ishtahani ochadi, qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi, spazmlarni yo`qotadi va hatto saratonning oldini oladi”, – deydi ekspert. Bir tilim limon tarkibida C va D vitaminlari, foliy va askorbin kislotalari, shuningdek, temir, mis, rux, ftor mavjud. Bir tilim limon askorbin kislotaning kunlik ehtiyojining yarmini o`z ichiga oladi. C vitamini sovuq mavsumda immunitet tizimining himoya xususiyatlarini mustahkamlaydi. Limon organizmdagi bakteriyalarning ko`payishiga to`sqinlik qiladi.

Ananas - *Ananas*

Ananas – ananasdoshlar (Bromeliaceae) oilasiga mansub o‘tlar turkumi 5 – 6 turi ma’lum. Asosan, Amerika qit’asining tropik hududlarida va Osiyoning Filippin, Tayvan orollarida o‘sadi. Barglari qalin, uzun, xanjarsimon. Ekiladigan ananas (Sativus) Amerika va Tayvandan boshqa joylarda ham o‘sadi.



1.7-rasm. Ananas - *Ananas*

Bu to‘rning mevasi qubba shaklidagi to‘p mevadan iborat, og‘irligi 2 – 5 kg, tusi sarg‘ish, xushxo‘r. Ho‘l meva yoki konserva holida iste’mol qilinadi. Ba’zi turlarining barglaridan ipaksimon nozik tolalar ham olinadi. Ananas C vitaminining manbai bo`lib, atigi bir stakan yangi ananas sharbati kundalik ehtiyojdan ham ko`proq foydani o`z ichiga oladi. C vitamini organizmda immunoglobulin ishlab chiqarishni rag`batlantiradi, uning viruslar va kasallik qo`zg`atuvchi bakteriyalarga qarshi tabiiy himoyasini kuchaytiradi. Bu vitamin teri uchun juda foydali: u tabiiy

kollagen ishlab chiqarishga yordam beradi, qarishning belgilarini kamaytiradi va teri ko`rinishini yaxshilaydi. Bundan tashqari, C vitamini kuchli tabiiy antioksidantdir. Flavonoidlar bilan birgalikda u tana hujayralarini erkin radikallarning shikastlanishidan himoya qiladi, yallig`lanishni kamaytiradi va yurak-qon tomir kasalliklari va Alsgeymer kasalligi kabi turli surunkali kasalliklarning oldini oladi. Tropik mevalar ham marganesga juda boy. Bu suyaklarni sog`lom va mustahkam saqlash uchun zarurdir. Oregon universiteti tomonidan o`tkazilgan tadqiqotga ko`ra, organizmdagi yetarli marganes osteoporoz xavfining kamayishi bilan bog`liq. Agar muntazam ravishda ananas iste`mol qilinsa, bu mineralning yetishmasligi haqida tashvishlanish shart emas, bir stakan yangi meva kunlik qiymatning taxminan 78 foizini o`z ichiga oladi. Ananas tanada yog` erishiga yordam beradi, degan ma`lumotlar mavjud. Mevaning bu xususiyati to`liq o`rganilmagan, shuning uchun olimlar hali buni aniq tasdiqlab yoki rad eta olmadi. Hayvonlar ustida o`tkazilgan tajribalar shuni ko`rsatdiki, ananasdagi bromelayn fermenti organizmdagi yog`larning parchalanishini tezlashtiradi, ammo tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Shuningdek, bromelaynning yana bir foydali xususiyati haqida hech qanday shubha yo`q: u ovqat hazm qilish jarayonlarini samarali rag`batlantiradi, oqsillarni yanada faol parchalanishiga yordam beradi. Shuning uchun go`shtli taomlarga ko`pincha ananasli sous qo`shiladi, sababi ular bilan og`ir ovqatlarni hazm qilish osonroq bo`ladi. Ananasning isbotlangan yog` eritish ta`siri bo`lmasa-da, uni vazn ortmasligiga rioya qilgan har bir kishining ratsioniga qo`shish kerak. Chunki sitrus mevaning kaloriyasi past, kletchatka, vitamin va minerallarga boy. Ananas salat, go`shtli taom, shirinliklarga qo`shilishi yoki mustaqil ravishda iste`mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, u konservalanganda deyarli foydali xususiyatlarini yo`qotmaydi. Asosiysi, qo`shimcha uglevodlarni iste`mol qilmaslik uchun mahsulotni shakarli siropini emas, balki tabiiy sharbatini tanlash kerak.

Pomelo – *Sitrus Pomelo*

Pomelo (shuningdek, pompelmus deb ataladi) - tropikda joylashgan yirik mevalari bo`lgan tsitrus doim yashil daraxt. Pomelo mevalari tsitrus mevalarning eng kattasi, terisi qalin, achchiqlanishiga ozgina tegishi bilan shirin va nordon.



1.8-rasm. Pomelo – *Sitrus Pomelo*

Doimiy yashil daraxt Pomelo (Pompelmus) Rute oilasining sitrus mevalari turkumiga kiradi. Pomelo mevalari etarlicha katta, ba`zida meva 10 kg gacha bo`lishi mumkin. Pomeloning pulpasi apelsin yoki greyfurt singari suvli emas, tolalari kattaroq va qattiqroq. Turli xilligiga qarab, pishgan

mevalarning rangi och yashil yoki to`q yashil yoki sariq rangga ega bo`lishi mumkin. Pomeloning go`shti och sariqdan pushti ranggacha bo`lishi mumkin.

Meva qalin terisi yashil yoki sariq rangga ega bo`lib, tilimlar achchiq ta`mga ega bo`laklar bilan ajralib turadi. Meva uch xil: pulpa rangiga qarab qizil, oq va pushti. Pomelo eng yirik tsitrus hisoblanadi, eng katta oq pomeloning vazni 10 kg gacha ko`tarilishi mumkin. Pomeloning vatani Malayziya va Xitoydir. Xitoy qo`lyozmalaridagi birinchi eslatmalar miloddan avvalgi 100 yilga tegishli. e. Pomelo farovonlik va farovonlikning ramzi deb hisoblanadi, shuning uchun Xitoyda u Yangi yil arafasida bir-birlariga sovg`a qilinadi va u bilan ko`plab an`anaviy taomlar tayyorlanadi. Tailandda bu mevalar xudolarga qurbonlik sifatida ishlatiladi. Meva Evropaga XIV asrda ingliz navigatori tomonidan olib kelingan.

Pomelo ko`pincha greyfurt gibridi hisoblanadi, ammo bu unday emas. Pomelo - bu mustaqil meva, undan keyin greyfurt tayyorlash uchun apelsin bilan kesilgan. Pomeloni oq greyfurt bilan kesib o`tib, katta yashil mandaringa o`xshash shirin meva paydo bo`ldi. Bu 1984 yilda Isroilda paydo bo`lgan, u erda olimlar greyfurtdan ko`ra shirinroq meva chiqarishga harakat qilishgan. Pomelo mevasida o`rtacha 7.6-11.1% quruq moddalar, 0.5-0.7% oqsil, 0.1-0.3% yog `, 0.4-0.8% tolalar va 0.4- 0.7% kul bor. Pomelo g`ayrioddiy tarzda vitaminlarga boy va foydali mikro- va makroelementlarga boy. E`tibor bering, A va S vitaminlariga boy greyfurt bu ko`rsatkichlar bo`yicha pomeledan pastroq.

O`rtacha 100 gramm vaznda pomelo mevasida 235 mg gacha kaliy, 26-27 mg kaltsiy, 22-26 mg fosfor, 1-2 mg natriy va 0.3-0.5 mg temir, 30- 53 mg S vitamini, 30 mg gacha beta-karotin, 0.04-0.07 mg B1 vitamini, 0.02 mg B2 vitamini, 0.2-0.3 mg B5 vitamini, shuningdek, ko`p miqdorda foliy kislotasi.

Pomeloning kaloriya tarkibi 26 g pulpa uchun 39-100 kaloriYallig`lanish Pomelo tarkibida ko`plab vitaminlar (A, C, B1, B2, B5), minerallar (kaltsiy, kaliy, temir, fosfor, natriy), tola, organik kislotalar va efir moylari mavjud.

Meva dietologlar tomonidan turli xil parhezlarning bir qismi sifatida tavsiya etiladi, deydi WeGym fitness klubi tarmog`ining ovqatlanish va sog`liq bo`yicha maslahatchisi Aleksandr Voinov: "Pomeloning metabolik jarayonlarni tezlashtirishi tufayli yog `birikmalari yonib ketadi va vazn yo`qotish jarayoni faolroq. Pomelodagi S vitamini kontsentratsiyasining ko`payishi (30 g pulpa uchun 53-100 mg) organizmning askorbin kislotaga bo`lgan kunlik ehtiyojini atigi ikki bo`lak bilan qoplashga imkon beradi. S vitamini antioksidant bo`lib, leykotsitlar faolligini oshiradi va shu bilan immunitetni oshiradi, infektsiyalarga qarshi kurashishda yordam beradi. S vitamini terining elastikligi, tish va tish sog`lig`iga ta`sir qiluvchi normal kollagen sintezi uchun ham zarurdir.

Pomelo xolesterin va qondagi qand miqdorini pasaytirishga yordam beradi, qon bosimini pasaytiradi va qon quyqalaridagi xavfni kamaytiradi, bu esa bu mevani diabet kasalliklari va yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanganlar uchun juda foydali qiladi. Pomelo ich qotishi uchun foydalidir. Tarkibida tolaning ko`payishi tufayli ovqat hazm qilish jarayoni yaxshilanadi. Boshqa barcha tsitrus mevalarga qaraganda ko`proq pomelda bo`lgan pektin zararli ta`sirga ega va qizilo`ngach va oshqozon shilliq qavatini kislotalar ta`siridan himoya qiladi. Pomelo tarkibida boshqa ko`plab mahsulotlarda mavjud bo`lmagan maxsus ferment - karnitin asiltransferaza mavjud. Bu yog`larning parchalanishini tezlashtiradi va ozuqa moddalarining so`rilishini yaxshilaydi, shuning uchun bu meva eng yaxshi "yog `yoqish" dan biri sifatida dietetikada ajralmas hisoblanadi. Bundan tashqari, meva past kaloriya hisoblanadi - 100 g meva pulpasida faqat 25 - 39 kkal mavjud. Pomelo kosmetologiyada ham qo`llaniladi. Pomelo pulpasidan tayyorlangan niqoblar va sharbat bilan yuzni surtish yuz terisiga namlantiruvchi va oziqlantiruvchi ta`sir ko`rsatadi va teri osti

bezining sekretsiyasini kamaytiradi. Pomeloning samaradorligi saraton kasalligiga qarshi kurashda isbotlangan. Pomelo mevasining qobig`i saraton hujayralarining bo`linishini sekinlashtiradigan bioflavonoid antioksidantlarga boy. Pomeloning vatani Xitoy bo`lib, u erdan asta-sekin Janubi-Sharqiy Osiyoga tarqaladi. Xitoyda pomelo ming yildan ko`proq vaqt davomida etishtirilgan deb ishoniladi. Va bu erda odamlar vitamin va minerallar omborida bu tsitrus qarindoshi nimani o`z ichiga olganini birinchi bo`lib tushunishdi. Qadim zamonlarda Xitoyning Janubi-Sharqiy Osiyo bo`ylab kengayishi bo`lganida, xitoyliklar o`zlari bilan greypfrutning so`qmoqlari va ko`chatlarini olib kelishgan, chunki bu meva farovonlik va farovonlik ramzi hisoblanadi. Pomelo mevasi xom yoki qayta ishlangan shaklda ishlatiladi. Meva ko`plab milliy Tailand va Xitoy taomlarining bir qismidir; u salatlarga qo`shiladi, dengiz mahsulotlari va parranda go`shti bilan yaxshi ketadi, marmelad pishirish uchun ishlatiladi va qobig`idan shakarlangan mevalar tayyorlanadi.

Laim - *Citrus Aurantiifolia*

Laim (Citrus aurantiifolia) morfologiyasi quyidagicha: Tur: Doim yashil, kichik daraxt yoki buta. Bo`yi: Odatda 2–5 metr balandlikda. Shoxlari: Tikanli, zich joylashgan. Barglari: Shakli: Oddiy, cho`zilgan yoki tuxumsimon. O`lchami: 4–8 sm uzunlikda. Rangi: To`q yashil, yaltiroq yuzali. Gullari: Rangi: Oq yoki biroz pushti.

Tuzilishi: 5 ta gulbargli, xushbo`y. Changlanish: Asosan o`z-o`zini changlaydi, ba`zida hasharotlar yordamida. Mevasi: Shakli: Dumaloq yoki biroz yassilangan. O`lchami: 3–6 sm diametrda. Po`stlog`i: Yashil, yupqa, pishganda sarg`ayadi. Go`shti: Nordon, suvli, segmentli. Uruqlari: Ko`p, oqish yoki och yashil rangda. Ildiz tizimi: Yuzaki, keng tarqalgan, yaxshi drenajlangan tuproqda yaxshi o`sadi. Laym hayratlanarli darajada yangi mevali iforga ega bo`lib, ta`m retseptorlarini qitiqlaydi va kayfiyatni ko`taradi.



1.9-rasm. Laim - *Citrus Aurantiifolia*

Meksika oshxonasining asosiy mahsuloti va Instagramning mashhur poke-boullarining ajralmas tarkibiy qismi bo`lgan laym jonli ta`m va C vitamini bilan to`ldirilgan. Yaltiroq yashil

sitrus ham kosmetikada juda qadrlanadi va laym ekstrakti ko`pincha parfyumeriya va aromaterapiyada qo`llaniladi. Meva kislotalari bilan to`ldirilgan laym shuningdek, yog`li terini parvarish qilish uchun ideal bo`lgan biriktiruvchi xususiyatlarga ega bo`lib, teri teshiklarini minimallashtirishga yordam beradi.

Go`zallik uchun foydasi Quvvat beruvchi, tetiklantiruvchi va soflashtiruvchi iforga ega. Laymning biriktiruvchi xususiyatlari porlashni kamaytirishga yordam beradi va teshiklarni kamroq ko`rinishiga yordam beradi. Laym mukammal tozalaydi va aromatizatsiya qiladi. Laym sochlarga qo`shimcha yorqinlik qo`shadi, chunki mevali kislotalar sochlar qobig`ini tekislaydi, bu esa sochlarning yanada yorqinroq bo`lishiga imkon beradi.

Laim mevasining sog`liq uchun foydalari juda ko`p. Quyida asosiylarini keltiraman: C vitamini manbai. Immunitetni kuchaytiradi. Sovuq tegishiga qarshi kurashda yordam beradi. Antioksidant xususiyatlar. Erkin radikallarni zararsizlantiradi. Qon tomirlar va hujayralarni qarishdan himoya qiladi. Hazmni yaxshilaydi. Me`da shirasi ishlab chiqarilishini rag`batlantiradi. Ovqat hazm bo`lishiga yordam beradi. Teri uchun foydali. Yallig`lanishga qarshi ta`sirga ega. Akne, qora nuqtalar va teri dog`lariga qarshi ishlatiladi. Og`iz gigiyenasini yaxshilaydi. Og`izdagi bakteriyalarni kamaytiradi. Nafasni tetiklashtiradi. Tana vaznini boshqarishda yordam beradi. Suvga siqilgan laim qo`shilishi chanqoqni bosadi va metabolizmni tezlashtiradi. Yurak salomatligi uchun Kaliy va antioksidantlar yurak faoliyatini qo`llab-quvvatlaydi.

Greypfrut - *Gitrus paradisi Macf*

Greypfrut (Gitrus paradisi Macf.) — rutadoshlar oilasiga mansub doimiy yashil subtropik o‘simlik; meva turi. Vatani — Hindiston. Yovvoyi holda uchramaydi. AQSh, Yaponiya, Hindiston, Gruziyada, Kavkazning Qora dengiz bo‘ylarida yetishtiriladi.

Daraxti baland 15 m, novdalari tikanli, bargi yirik, tuxumsimon, yaltiroq. Issiqsevar va namsevar. Guli oq, mevasi yirik (250—600 g), diametri 15 sm gacha boradi, yakka holda yoki 2—15 donasi bir shingilda yetiladi, yassiroq, ba’zan dumaloq, tusi ko‘kimtirsarg‘ish, eti shirali. Po‘sti qalin (1 sm atro-fida), mazasi nordon-chuchuk. Noyabr— dekabr oylarida pishadi.

Mevasi tarkibida 88—90% suv, 3,8—6,7% qand, 1,4—2,4% organik kislotalar, po‘stida 9,2—19% pektin moddalari; 100 g sharbatida 45 mg gacha S vitamini bor. Yangiligida yeyiladi, sharbat olinadi, kompot, murabbo tayyorlanadi. Hosildorligi 150 s/ga. Marsh sidlis, Dunkan, Foster, Sheddok, Gulripshskiy, gibrid № 1537 va b. navlari mashhur. Aksariyat trifoliatta payvand qilish bilan ko‘paytiriladi. Bu efir moylari, E vitamini, flavonoidlar va polifenollarning yaxshi manbai. Greypfrut tarkibida ko`plab kuchli antioksidantlar mavjud bo`lib, ular tanangizni erkin radikallar keltirib chiqaradigan oksidlovchi zararlardan himoya qiladi.

Greypfrutning foydali xususiyatlari quyidagicha:

- muntazam ichilgan greypfrut sharbati osteoporoz kasalligini oldini oladi va suyaklarni mustahkamlaydi;
- yurak-tomir kasalliklarini bartaraf etib, insultni oldini oladi;
- greyofrut o`z vazniga ahamiyat qaratuvchilarga ham juda qo`l keladi: undagi taxir ta`m moddalar almashinuvi jarayonini tezlashtiradi;
- greypfrut o`zida sutkalik C vitaminining 78 % ini saqlaydi;
- immunitetni mustahkamlab, bakteriyalar va viruslarga qarshi kurashadi;
- undagi efir moylari stressni bartaraf etib, yaxshi kayfiyat va xotirjamlik baxsh etadi;
- buyraklarda tosh yig`ilishining oldini oladi;
- milk kasalliklari va uning qonashini davolaydi;
- greypfrut qondagi shakar miqdoriga ta`sir ko`rsatmasligi sabab, uni qandli diabetga chalinganlarga ham iste`mol qilish tavsiya qilinadi;

- greypfrut qon bosimini tushiradi;
- bosh og`rig`ini qoldirib, uyqusizlikdan xalos etadi.
- Greypfrutning barcha foydali xususiyatlarini qabul qilish uchun uni oq yupqa po`sti bilan iste`mol qilish kerak, chunki aynan shu taxir «pelyonka» o`zida ko`p vitaminlarni saqlaydi.



1.10-rasm. Greypfrut - *Gitrus paradisi Macf*

Pazandachilikda greyfrutning ahamiyati

Greypfrutdan pazandachilikda keng foydalanishadi: masalan uni deser va gazaklarga, hatto quyuq taomlarga ham solishadi. Ko`p hollarda yog`li yoki yuqori kaloriyali taomlardan oldin greyfrutdan salat yoki sharbati tortiladi. Bu sitrus meva hazm qilish jarayonini tezlashtiradi.

Greypfrutni quyidagilarga ishlatish mumkin:

- salatlarga: greypfrut o`zida juda ko`p kislotalarni saqlashi sabab ham undan salatlar tayyorlanilsa, u oshqozondagi kislotalarning ta`sirini yumshatadi;
- shirin bo`lmagan salatlarga greypfrut avokado, pishloq, tovuq va dengiz mahsulotlari bilan yaxshi «kelishadi»;
- marinadlarga: tuz, to`g`ralgan ko`katlar va greypfrut sharbatida marinadlangan so`ng tovuq, mol va cho`chqa go`shti juda yumshab pishadi;
- pishiriqlarga: keks, to`rtlar va pechenyelarga apelsin o`rniga qo`rqmasdan greypfrutdan solish mumkin;
- shuningdek greypfrutni choy, salqin koktellar va glintveynga ham solishadi.

Shuningdek greypfrut urug`i tarkibida fenolik kislotalar, antosiyaninlar va flavonoidlar kabi turli xil kimyoviy tarkibiy qismlar unga noyob dorivor xususiyatlarni beradi. Greypfrut urug`larida hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiluvchi kuchli antioksidant bo`lgan naringenin mavjud [19].

Bergamot – *Citrus bergamia*

Bergamot (Citrus bergamia) — sitrus mevalari oilasiga mansub bo`lgan, asosan Italiyada yetishtiriladigan va parfyumeriya sanoatida keng qo`llaniladigan o`simlikdir. U asosan efir moyi uchun yetishtiriladi va bu moyning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bergamot efir moyidir. Morfologik tavsif

1. Barglari

• Shakli: Ovat yoki eliptik.

• O`lchami: 2,5–5,5 sm uzunlikda va 1,5–4 sm kenglikda.

• Rangi: Yuqori tomoni qoramtir yashil, pastki tomoni esa ochroq.
• Xususiyatlari: Yog`li va yorqin, aromatik hidga ega.
2. Gullar
• Rangi: Oq.
• Shakli: Yulduz shaklida, 4–5 ta petaldan iborat.
• O`lchami: Taxminan 3 sm kenglikda.
• Hidi: Yuqori darajada aromatik.
• Paydo bo`lish vaqti: Bahor va yozda.
3. Mevalar
• Shakli: Yarim olma yoki nok shaklida.
• O`lchami: Taxminan 5–10 sm uzunlikda.
• Rangi: Pishganida sariq yoki yashil.
• Po`stlog`i: Qalin, qattiq va aromatik efir moylarini o`z ichiga olgan.
• Ichki tarkibi: Sitrusli, achchiq va nordon ta`mga ega.
• Foydalanish: Asosan efir moyi olish uchun ishlatiladi; meva kamdan-kam hollarda to`g`ridan-to`g`ri iste`mol qilinadi.
4. Bo`yi va o`sish shakli
• Bo`yi: Taxminan 2,5–4 metr.
• O`sish shakli: Kichik daraxt yoki buta shaklida.
• Barglar: Doim yashil, qalin va yorqin.
• Gullar: Bahor va yozda gullaydi.
• Mevalar: Kuzda pishadi.



1.11-rasm. Bergamot – *Citrus bergamia*

Tarqalishi va ishlab chiqarish Bergamot asosan Janubiy Italiyadagi Kalabriya mintaqasida yetishtiriladi, bu yerda dunyo bo`yicha bergamot ishlab chiqarishining 80% dan ortig`i amalga

oshiriladi. Shuningdek, bergamot Braziliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Ivoriy Qirg`oq kabi mamlakatlarda ham yetishtiriladi .

Bergamot po`stlogidan olingan efir moyi teriga ta`sir qilganda fotosensitivlikni oshirishi mumkin, bu esa quyoshga ta`sir qilishda teri zararlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bergamot bilan ishlaganda ehtiyotkorlik zarur.

